

PIRLS XALQARO BAHOLASH DASTURI ASOSIDA O'QUVCHILARDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

*Ne'matova F.B.
BuxDU tayanch doktoranti*

Annotatsiya: maqolada PIRLS xalqaro baholash dasturi asosida o'quvchilarda kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari, boshlang'ich sinflardan boshlab o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishda o'qituvchining pedagogik qobiliyatlarini va undan foydalanish usullari, o'quvchilarda kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirishning dolzarbligi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: ta'limgarayoni, komptensiyaviy yondashuv, kommunikativ kompetensiya, pedagogik qobiliyatlar, kommunikativ qobiliyat, pedagogik imkoniyat, ta'limgarayoni.

Аннотация: в статье говорится о педагогических возможностях формирования коммуникативных компетенций у учащихся на основе международной программы оценивания PIRLS, педагогических способностях учителя и методах их использования при формировании коммуникативных компетенций учащихся начальных классов, актуальности формирования коммуникативных компетенций у студентов.

Ключевые слова: образовательный процесс, компетентностный подход, коммуникативная компетентность, педагогические способности, коммуникативная способность, педагогические возможности, образовательная успешность.

Abstract: the article talks about the pedagogical possibilities of forming communicative competences in students based on the PIRLS international evaluation program, the teacher's pedagogical abilities and methods of using them in the formation of communicative competences of students from primary grades, the relevance of forming communicative competences in students .

Key words: educational process, competence approach, communicative competence, pedagogical abilities, communicative ability, pedagogical opportunity, educational success.

XXI asrga kelib O'zbekiston Respublikasi boshlang'ich ta'limgarayoni tizimida juda ko'p o'zgarishlar amalga oshirildi. Yangiliklarning kiritilishi ta'limgarayoni sifatini xalqaro talablar darajasiga yetkazishdan iborat. Hozirda ta'limgarayoni qabilat qilinayotgan ko'plab me'yoriy-huquqiy hujjatlarning zamirida ham boshlang'ich ta'limgarayoni yangicha yondashuvni olib kirish va sifat samaradorlikni oshirish asosiy maqsad qilib belgilangan. Jumladan:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risidagi 2022-yil 28-yanvardagi 60-sonli Farmonida qator maqsadlar berilgan bo'lib, ta'limgarayoni qator zamonaviy yangiliklarni olib kirishga qaratilgan vazifalar belgilangan:

maktablarni rivojlantirish milliy dasturini joriy etish orqali xalq ta'limi tizimida qo'shimcha 1,2 million o'quvchi o'rni yaratilishi;

davlat oliy ta'limgarayoni muassasalariga akademik va moliyaviy mustaqillik berish, shu jumladan ular tomonidan mehnatga haq to'lash, xodimlar soni, to'lov-kontrakt miqdori va ta'limgarayoni shaklini mustaqil belgilash amaliyotini yo'lga qo'yish;

2026-yilga qadar 10 ta salohiyatli oliy ta'limgarayoni QS va TNE xalqaro reytinglariga kirishga maqsadli tayyorlash;

yoshlar uchun ochiq va sifatlari ta'limgarayoni qator zamonaviy yangiliklarni olib kirishga qaratish;

umumiy o'rta ta'limgarayoni muassasalarida darsliklarni yangilash dasturini amalga oshirilishi uchun Davlat budgetidan 605 mlrd so'm ajratilishi;

2026-yilga qadar o'quv dasturlari va darsliklarni ilg'or xorijiy tajriba asosida to'la qayta ko'rib chiqib, amalda joriy etish;

maktablarda ta'limgarayoni sifatini oshirish, pedagog-kadrlarning bilimi va malakasini xalqaro darajaga olib chiqish.

Qolaversa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash" to'g'risidagi 2019-yil 29-apreldagi 5712-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'limgarayoni to'g'risida"gi

637-sonli Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 997-sonli Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi 4884-sonli Qarori shular jumlasidandir.

Zamonaviy o'qituvchiga qo'yilgan talablarni tahlil qilar ekanmiz, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning "Mustaqil o'ylay oladigan tafakkur yuritib to'g'ri ma'qul va maqbul ish tuta oladigan vatanparvar shaxslarni shakllantirish va tarbiyalash kerak", – deb ta'kidlagan fikrlarini keltirishni joiz deb topdik.

Darhaqiqat yoshlarni zamonaviy fan-texnikaning, umuman, ilm-fanning yutuqlaridan bahramand qilmasdan turib, ularga yuqori malakali ixtisos egalari bo'lib yetishishiga zamin yarataolmaymiz.

Xalqaro tajribadan ko'rindiki, ayniqsa boshlang'ich sinf o'qituvchi bugungi ta'lim sifatini oshirishda o'quv jarayoniga qator ijobjiy va ijodiy sifatlarni olib kirishi va o'ziga nisbatan singdira olishi lozim.

Ta'lim jarayonida xalqaro tajribalarga asoslanib PIRLS tadqiqotlarini qo'llashning yana bir jihatib bu: ta'lim sohasidagi dunyo ustuvorliklarini aks ettiruvchi ob'ektiv o'lchovlar va vositalarni ishlab chiqish; mamlakat o'quv jarayonini tashkil etish samaradorligini qiyosiy baholash; tadqiqot natijalariga ta'sir ko'rsatgan kontekstual omillarni aniqlash; xalqaro hamjamiyat tomonidan tan olingan dalillarga asoslangan ma'lumotlarga ega bo'lish kabi muammolarni hal qilishga qaratilgan.

Darhaqiqat, global o'zgarishlar davrida turli darajadagi ta'lim sifatini baholash tizimining rivojlanish tendensiyalari, ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro solishtirma dasturlarida O'zbekiston Respublikasining ishtiroy etishi ta'lim tizimining salohiyatini oshirish imkoniyati sifatida qaraladi. Mamlakatimizni dunyo hamjamiyatiga faol tarzda kirib borishi va xalqaro dasturlarda ishtiroy etish doirasining kengayib borishi mamlakat hayotining barchasohalarida katta o'zgarishlar ro'y berishiga turki bo'ldi.

Hozirgi vaqtida PIRLS tarifiqa ko'ra, o'qish savodxonligi jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma til shakllarini tushunish va ulardan foydalanish, shuningdek, matnlardan turli shakllarda mano hosil qila olish qobiliyati hamdir.

PIRLS yosh o'quvchilarining sinfda va sinfdan tashqari o'qishining ikkita maqsadiga qaratilgan: Bular: badiiy tajriba orttirish hamda ma'lumot olish va ulardan foydalanish uchun o'qishdir.

PIRLS o'qish maqsadlarining har birida to'rtta keng tushunish jarayonini birlashtiradi: diqqatni jamlash va aniq ko'rsatilgan malumotlarni topish, to'g'ridan-to'g'ri xulosalar chiqarish, g'oyalar va axborotni talqin qilish va uyg'unlashtirish, kontent va matn elementlarini baholash va tanqid qilish.

PIRLSda har bir matn parchasi yoki matn yuzasidan beriladigan savollar to'rtta tushunish jarayonini baholash uchun asos bo'lib xizmat qiladi. O'quvchilar matndan ma'no hosil qilar ekan, ular aniq tushuntirilmagan g'oyalar yoki ma'lumotlarga nisbatan tushuntirishlar beradi. Xulosalash o'quvchilarga matndan tashqariga chiqishga imkon beradi. Ko'pgina hollarda muallif matnni o'quvchining aniq yoki bevosita xulosa chiqarishi uchun yaratadi. O'quvchilar oddiy xulosalar bilan bir qatorda, matndagi g'oyalar va axborotlarni talqin qilishda va uyg'unlashtirishda aniq yoki umumiyl manolarga etibor berishlari yoki tafsilotlarni umumiyl mavzular va g'oyalar bilan bog'lashlari mumkin To'liq javob berish uchun o'quvchidan barcha matnni yoki hech bo'limganda uning muhim qismlarini, shuningdek, matndan tashqaridagi fikrlarni yoki axborotni tushunish talab qilinadi.

PIRLS tadqiqotida ishlatalidigan matnlar tarkibi 1000 ta so'zgacha bo'lib, badiiy matnlar asosiy mavzuga ega, u berilgan matndan tashqari o'quvchi tomonidan umumlashtiriladigan, axborot matnlari o'quv materiallardan olinmagan mavzuni yoritib bergen bolishi kerak. Matnda hech qanday so'zlashuvga oid so'zyokijargon ishlatalilmaydi hamda ortiqcha texnik ifodalar olib tashlanadi. Matnning mazmuni 910 yoshdag'i o'quvchilarining yosh xususiyatlari mos kelishi, ayrim madaniyatlarga juda xos bo'lgan mavzulardan chetlanishi, shuningdek, matn shu yoshdag'i maktab o'quvchilarini uchun qiziqarli va zavqli bo'lishi hamda o'quvchi uchun unchalik tanish bo'lmaganda uning muhim qismlarini, shuningdek, matndan tashqaridagi fikrlarni yoki axborotni tushunish talab qilinadi.

Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro solishtirma dasturlar natijalarning kompleks tahlillari, o'quvchilarining o'qish, tabiiy fanlar, matematik va ijodiy fikrlash savodxonligini baholash, xalqaro dasturlar metodologiyasi va baholash mezonlaridan milliy o'quv-uslubiy va o'lchov materiallarini yaratishda foydalanishga imkoniyat yaratib, mazkur muammoga oid yangidan-yangi tadqiqot ishlarini olib borishga muhim ahamiyat kasb etadi.

Bizga ma'lumki, turli mamlakatlarda o'tkazilgan PIRLS tadqiqotining natijalari pedagogik hamjamiyat tomonidan keng muhokama qilinmoqda. Boshlang'ich bitiruvchi sinf o'quvchilarining yutuqlari va ular tomonidan erishilgan natijalarni monitoring qilish mexanizmlari joriy etilmoqda, o'quv texnologiyalari va boshlang'ich maktab o'quvchilarining o'quv yutuqlariga qo'yiladigan

talablar yanada takomillashtirish uchun ko'rib chiqilmoqda. Xalqaro test topshiriqlari asosida maktab o'quvchilari, pedagogik jamoalar va innovatsion o'qituvchilarning savodxonligini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar nafaqat o'quvchilarning ilmiy-savodxonlik yutuqlarini baholashga, balki birinchi navbatda o'qish madaniyati va ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan bo'lib, bu har bir mamlakatdagi yosh avlodning puxta va sifatli bilim olishi uchun muhim omildir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-son Farmoni

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni. 2019-yilning 29-aprel.

Dilova N.G., Saidova M.J. (2020). Formative assessment of students' knowledge as an innovative approach to education. The American Journal of Social Science and Education Innovations. 2:12, P. 190196.

Dilova N.G. (2017). Opportunities of Pupils' Complex Development on the Bases of Modernization the Content of Primary Education. Eastern European Scientific Journal. No. 1, pp. 1-4. 10. Dilova N.G. (2017). Activity Areas of Primary School Teachers. Eastern European Scientific Journal. No. 6,

pp. 1-6.

Ne'matova F.B. et al. Boshlang'ich sinflarda PIRLS xalqaro baholash dasturlaridan foydalanishning ahamiyati va zarurati //Science and Education. – 2022. – T. 3. – №. 2. – C. 576-581.